



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 25.04.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

SALVIA OFFICINALIS O'SIMLIGINING SIFAT VA MIQDOR KO'RSATKICHLARI

Asqarov I.R¹., Xojimatov D.S²., Mirsaidova S.M³.

¹O'zbekiston "Tabobat" Akademiyasi raisi k.f.d., professor

²Andijon davlat universiteti, Kimyo kafedrasi k.f.f.d., (PhD)

³Andijon davlat universiteti, Kimyo kafedrasi talabasi

Uzbekistan

adu@edu.uz

Annotatsiya. Bu tadqiqotlar mavrak o'simligini farmasevtika va oziq-ovqat sanoatida innovatsion va effektiv tabiiy dori vositalari sifatida ishlatish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Salvia officinalis, antivirus, vitaminlar, flavonoidlar, taninlar, kul miqdori.

Аннотация: Эти исследования направлены на расширение возможностей использования растения в качестве инновационного и эффективного натурального лекарственного средства в фармацевтической и пищевой промышленности.

Ключевые слова: Salvia officinalis, противовирусное действие, витамины, флавоноиды, дубильные вещества, зольность.

Abstract: These studies serve to expand the possibilities of using sage as an innovative and effective natural medicine in the pharmaceutical and food industries.

Keywords: Salvia officinalis, antiviral, vitamins, flavonoids, tannins, ash content.

Language: Uzbek

Citation: Asqarov , I., Khojimatov , M., & Mirsaidova , S. (2025). QUALITATIVE AND QUANTITATIVE INDICATORS OF SALVIA OFFICINALIS. Universal International Scientific Journal, 2(4), 176–179. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1514>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15281224>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Hozirgi kunda zamonaviy tibbiyotda sintetik dori vositalari keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ularning organizmga salbiy ta'siri ba'zan ijobiy xususiyatlariga nisbatan ustun bo'lishi natijasida boshqa o'tkir kasalliklarni keltirib chiqarishi ko'plab tadqiqotlar tomonidan tasdiqlangan. Ayniqsa, keng spektrli antivirus ta'sirga ega bo'lgan sintetik dori vositalarining organizmga zararli ta'sirlari, ularni uzoq muddat qo'llashda kuzatilishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy tibbiyotda kasalliklarni davolashda va profilaktikasida sintetik dori vositalariga yordamchi sifatida xalq tabobati usullarini keng qo'llash, ularning samaradorligini ta'minlash muhim masala hisoblanadi.

Xalq tabobatining asosiy afzalligi shundaki, u tabiiy o'simliklar va organizmga tabiiy xususiyatlari bilan ta'sir ko'rsatadigan birikmalardan

foydalanadi. Bu tabiiy moddalarga alkaloidlar, glikozidlar, fenol hosilalari, xinonlar, triterpenoidlar kabi tabiiy birikmalar, shuningdek vitaminlar va minerallar kiradi. Dorivor o'simliklar inson salomatligini saqlashda va kasalliklarni davolashda muhim o'rin egallaydi. Ularning tarkibida biologik faol moddalar, vitaminlar, flavonoidlar, taninlar va boshqa foydali komponentlar mavjud bo'lib, ular turli dori vositalari ishlab chiqarishda ishlatiladi. Ana shunday qadimdan xalq tabobatida keng qo'llanilib kelinayotgan o'simliklardan biri bu — *mavrak (Malva sylvestris)* hisoblanadi.

Dorivor mavrak *Salviya officinalis* — [labguldoshlar oilasiga](#) man sub [ko'p yillik o'tlar](#) va yarim butalar [turkumi](#) 500 [turi](#) bor. [O'zbekistonda](#) 16 turi uchraydi. Shundan yarim buta bo'lgan dorivor mavrak ekib o'stiriladi.

Mavrak o'simligi o'zining yallig'lanishga qarshi, yumshatuvchi va o'rab oluvchi xususiyatlari bilan mashhur bo'lib, ayniqsa, nafas yo'llari kasalliklarida, teri muammolarida, oshqozon-ichak tizimi og'riqlarida keng qo'llaniladi. Bunday foydali xossalarga ega bo'lgan o'simliklarni saqlash va ulardan sifatli dorivor mahsulotlar olish uchun ularning fizik-kimyoviy xossalarini, ayniqsa, namlik miqdorini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Namlik miqdori — o'simlik xom ashyosining sifati va saqlash muddatiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Haddan tashqari yuqori namlik mikroorganizmlarning

rivojlanishiga olib kelib, biologik faol moddalarning parchalanishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, dorivor o'simliklarning sifatini baholashda ularning namlik darajasini aniqlash alohida e'tibor talab qiladi.

Ushbu ishda mavrak o'simligining namlik miqdorini aniqlash maqsad qilingan bo'lib, olingan natijalar uning texnologik ishlov berish bosqichlarida qanday o'rin tutishini aniqlashda yordam beradi

Mavrak (Salvia officinalis) o'simligining namlik miqdorini aniqlash XI DF talablariga muvofiq olib borildi. Tajriba natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval.

Mavrak (Salvia officinalis) o'simligining namlik miqdorini ko'rsatkichini aniqlash natijalari.

№	Quruq massa	Quruq idish	Idish va maxsulot	Qizdirishdan keyingi massa ² (gr)		
				60 minut	120 minut	180 minut
1.	2.01	35.09	37.12	36.96	36.95	36.95
2.	2.02	22.30	24.32	24.16	24.14	24.14
3.	2.00	34.32	36.32	36.18	36.15	36.15

¹*Namunaning qizdirishdan oldingi idish bilan birgalikdagi massasi.*

²Namunaning qizdirishdan keyingi idish bilan birgalikdagi massasi

Hisoblash natijalari quyidagicha:

$$x = \frac{(2,03 - 1,86) \cdot 100}{2,03} = 8,37 \%$$

Dorivor o'simliklarning namligiga qo'yilgan talablarda namlik ko'rsatkichi 12 % deb belgilangan. Biz olib borgan tadqiqotimiz natijasida, Mavrak (*Salvia officinalis*) o'simligida 8,37 % namlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Ushbu namliklar qo'yilgan talablarga to'la mos keladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida mavrak (*Malva sylvestris*) o'simligining namunalarida namlik miqdori aniqlanib, uning dorivor xom ashyo sifatida foydalanilishi uchun muhim texnologik ko'rsatkichlardan biri ekani tasdiqlandi. Tajriba davomida namunalar quritish usuli bilan tahlil qilindi va natijalar

asosida o'simlik tarkibidagi suv miqdori foiz hisobida baholandi.

Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, mavrak o'simligi dorivor xom ashyo sifatida ishlatilishidan oldin ma'lum darajada quritilishi lozim. Chunki ortiqcha namlik moddalarining parchalanishiga, mikroorganizmlarning rivojlanishiga va dorivor xossalarning kamayishiga olib keladi.

Shu bois, mavrak o'simligini saqlash va qayta ishlashda uning namlik miqdorini nazorat qilish zarur bo'lib, bu dorivor mahsulotlarning sifati va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Asqarov. Tabobat qomusi, toshkent. Mumtoz so'z 2019y. 149-151 b.
2. Assaggaf H. M. et al. Chemical analysis and investigation of biological effects of *Salvia officinalis* essential oils at three phenological stages //Molecules. – 2022. – T. 27. – №. 16. – C. 5157.
3. Al-Tawaha A., Al-Karaki G., Massadeh A. Antioxidant activity, total phenols and variation of chemical composition from essential oil in sage (*Salvia officinalis* L.) grown under protected soilless condition and open field conditions //Advances in environmental Biology. – 2013. – C. 894-902.
4. Marques p. A. C. Et al. Natural rubber latex-based biomaterials for drug delivery and regenerative medicine: trends and directions //international journal of biological macromolecules. – 2024. – c. 131666.
5. Marques p. A. C. Et al. Natural rubber latex-based biomaterials for drug delivery and regenerative medicine: trends and directions //international journal of biological macromolecules. – 2024. – c. 131666.